

O'zbekiston va Rossiya Prezidentlari ikki tomonlama hamkorlik kun tartibidagi dolzarb masalalarni muhokama qildilar



16-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari o'zaro savdoni ko'paytirish, yetakchi korxonalarining sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, qo'shma Loyihalar ofisi doirasida ustuvor tarmoqlardagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratdilar.

Shu ma'noda, "Innoprom. Markaziy Osiyo" xalqaro ko'rgazmasi va O'zbekiston-Rossiya hududlar forumini o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Ikki davlat yetakchilari madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish masalalari yuzasidan ham fikr almashib, bo'lajak tadbirlar rejasini ko'rib chiqdilar.

Manba